

XIX ASR OXIRIDA BUXORO–CHORJO‘Y HUDUDLARIDA HOFIZLIK, BAXSHICHILIK VA DOSTONCHILIK AN‘ANALARINING RIVOJI

Muxamedov To‘lqinjon Djurayevich

Buxoro davlat universiteti Sport va san‘at fakulteti

Tasviriy san‘at va musiqa ijrochiligi kafedrası dotsenti

tulkinjonmuxamedov@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada XIX asr oxirida Buxoro–Chorjo‘y hududlari o‘rtasidagi madaniy aloqalarning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilingan. Savdo munosabatlari, temir yo‘l qurilishi, ilm-fan, ta‘lim, adabiyot, musiqa, hunarmandchilik va diniy-ma‘rifiy aloqalarning madaniy taraqqiyotga ta‘siri yoritilgan. Shuningdek, hofizlik, baxshichilik va dostonchilik an‘analarining rivojlanishi, ularning ikki hudud xalqlari o‘rtasidagi ma‘naviy yaqinlashuvga qo‘shgan hissa ilmiy manbalar asosida tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari Buxoro va Chorjo‘y o‘rtasidagi madaniy munosabatlarning Markaziy Osiyo madaniy merosi rivojida tutgan muhim o‘rnini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: XIX asr, Buxoro, Chorjo‘y, madaniy aloqalar, musiqa madaniyati, hofizlik, baxshichilik, dostonchilik, Shashmaqom, hunarmandchilik, ta‘lim, savdo yo‘llari.

Аннотация

В статье анализируются основные направления культурных связей между Бухарой и Чарджуем в конце XIX века. Рассматривается влияние торговых отношений, строительства железной дороги, развития образования, науки, литературы, музыкального искусства, ремесленного производства и религиозно-просветительской деятельности на культурное развитие региона. Особое внимание уделено традициям хафизского исполнительства, бахши и сказительского искусства, их роли в укреплении духовных связей между населением двух регионов. На основе исторических источников раскрывается значение культурных контактов Бухары и Чарджуя в развитии культурного наследия центральной Азии.

Ключевые слова: XIX век, Бухара, Чарджуй, культурные связи, музыкальная культура, хафизы, бахши, сказительство, Шашмаком, ремесленничество, образование, торговые пути.

Abstract

This article examines the main directions of cultural relations between Bukhara and Charjuy in the late nineteenth century. It analyzes the influence of trade relations, railway construction, education, scholarship, literature, musical culture, handicrafts, and religious-educational activities on the cultural development of the region. Particular attention is paid to the traditions of hafiz performance, bakhshi epic singing, and oral storytelling, highlighting their contribution to strengthening the spiritual and cultural ties between the two regions. Based on historical sources, the study demonstrates the significant role of Bukhara–Charjuy cultural interactions in the development of the cultural heritage of Central Asia.

Keywords: nineteenth century, Bukhara, Charjuy, cultural relations, musical culture, hafiz performance, bakhshi tradition, epic storytelling, Shashmaqom, handicrafts, education, trade routes.

XIX asrning oxirida Buxoro va Chorjo‘y hududlari o‘rtasidagi madaniy aloqalarda musiqachi hofizlar, baxshilar va dostonchilar alohida o‘rin tutgan. Ular xalqning ma‘naviy hayoti, tarixiy xotirasi va milliy qadriyatlarini saqlash hamda avloddan avlodga yetkazishda muhim vazifani bajarganlar. Bu san‘atkorlar karvon yo‘llari, bozorlar, xalq sayillari, diniy bayramlar, to‘y va boshqa marosimlarda chiqish qilib, ikki hudud o‘rtasidagi madaniy birlikni mustahkamlaganlar.

Buxoro musiqiy muhitida hofizlik san‘ati yuksak darajada taraqqiy etgan. Hofizlar asosan maqomlar, g‘azallar, munojotlar va xalq qo‘shiqlarini ijro etganlar. Ularning repertuarida Shashmaqomning «Buzruk», «Rost», «Navo», «Dugoh», «Segoh» va «Iroq» maqomlari alohida o‘rin tutgan. Bu maqomlar ko‘pincha Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Hofiz Sheroziy va Bedil g‘azallari bilan ijro etilgan.

Buxoro hofizlarining Shashmaqomni ijrosida tanbur, g'ijjak, doira va nay kabi milliy cholg'ular asosiy o'rinni egallagan. Ayniqsa tanbur maqom ijrosining yetakchi cholg'usi hisoblangan. Hofiz ovozi bilan tanbur navosi uyg'unlashganda musiqiy asarning badiiy qiymati yanada oshgan.

Buxoro hofizlari Chorjo'yga muntazam borib turganlar. Ular to'ylarda, amaldorlar qabullarida va savdogarlar bazmlarida qatnashganlar. Bu chiqishlar orqali Buxoro ijro maktabi Amudaryo bo'yida keng tarqalgan.

Chorjo'y hududida esa baxshichilik san'ati ayniqsa rivojlangan bo'lib, baxshilar xalq dostonlarini dutor yoki g'ijjak jo'rligida ijro etganlar. Ular xalq tarixini, qahramonlik an'alarini va axloqiy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi dostonlarni kuylab yurganlar.

Baxshilarning asosiy repertuariga «Alpomish», «Go'ro'g'li», «Oshiq G'arib», «Yusuf va Ahmad», «Tohir va Zuhra», «Ravshanxon» kabi dostonlar kirgan.

Masalan, «Alpomish» dostoni ijrosida baxshi Alpomishning qalmoqlar yurtiga borishi, Boychibor otining fazilatlari, Barchinoyga bo'lgan muhabbati va el-yurtini ozod qilish yo'lidagi jasoratini kuylab bergan. Bu dostonning ayrim qismlari bir necha soat, ba'zan esa bir necha kecha davomida ijro etilgan.

«Go'ro'g'li» turkumida esa adolat uchun kurash, jasorat, vatanparvarlik va xalqparvarlik g'oyalari asosiy mavzu bo'lgan. Chorjo'y baxshilari ushbu dostonlarning turkman va o'zbek variantlarini yaxshi bilganlari uchun ikki xalq madaniy an'analari o'rtasida tabiiy uyg'unlik yuzaga kelgan.

Doston ijrosi jarayonida baxshi faqat kuylamasdan, voqealarni ifodali nutq bilan hikoya qilgan, qahramonlarning ovozini o'zgartirib tasvirlagan, zarur paytlarda hazil, maqol va hikmatli so'zlardan ham unumli foydalangan. Bu esa dostonlarni xalq uchun yanada qiziqarli qilgan.

Chorjo'y bozorlarida tashkil etiladigan katta sayillar baxshilar uchun muhim ijodiy maydon vazifasini o'tagan. Bu yerda Buxorodan kelgan hofizlar bilan mahalliy baxshilar birgalikda chiqish qilganlari haqida mahalliy tarixiy manbalar va sayyohlar xotiralarida ma'lumotlar uchraydi. Bunday uchrashuvlar ijro uslublarining o'zaro boyishiga xizmat qilgan.

Xalq orasida mehnat qo'shiqlari ham juda keng tarqalgan. Amudaryo sohilarida dehqonlarning hosil yig'im-terimida ijro etgan qo'shiqlari, chorvadorlar va boshqa mehnat faoliyatlari bilan shug'ullangan aholining turli hazil mutoyiba-lapar qo'shiqlari ham Buxoro va Chorjo'y aholisining umumiy musiqiy merosini tashkil etgan. Bu qo'shiqlarda mehnat, tabiat, muhabbat va vatan mavzulari kuylangan.

To'y marosimlarida «Yor-yor», «Kelin salom» kabi marosim qo'shiqlari hamda laparlar ijro etilgan. Buxoro hofizlari ushbu qo'shiqlarni maqom uslubiga yaqinroq ijro etgan bo'lsalar, Chorjo'y ijrochilari ularni xalqona ohanglarda kuylaganlar. Bu holat bir qo'shiqning turli ijro maktablarida qanday shakllanganini ko'rsatadi.

XIX asr oxirida Buxoro musiqa muhitida yetishgan ijrochilik an'analari keyingi davrda Ota Jalol Nosirov va Ota G'iyos Abdulg'aniev kabi buyuk maqom ustalari ijodida o'zining yuksak davomini topdi. Garchi ular XX asrda ijod qilgan bo'lsalar-da, ularning ijro uslubi XIX asr Buxoro maqom maktabi an'alariga tayangan.

Shu bilan birga, Chorjo'y va Amudaryo bo'ylarida keyinchalik mashhur bo'lgan turkman baxshichilik maktabining shakllanishida ham XIX asr oxiridagi Buxoro musiqiy muhitining ta'siri sezilarli bo'lgan. Bu jarayon ikki xalqning musiqiy merosi bir-birini boyitganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxirida Buxoro–Chorjo'y hududlarida hofizlik, baxshichilik va dostonchilik san'ati madaniy aloqalarning eng muhim ko'rinishlaridan biri bo'lgan. Hofizlar maqom va g'azalchilik an'alarini, baxshilar xalq qahramonlik dostonlarini, dostonchilar esa og'zaki tarix va milliy qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazganlar. Ularning muntazam safarlari va qo'shma ijrolari ikki hudud o'rtasidagi ma'naviy birlikni mustahkamlab, umumiy musiqiy va folklor merosning shakllanishiga katta hissa qo'shgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.Muxamedov. Xalq ogzaki ijodi bo'lgan folklor va uning xususiyatlari. Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. 2020 yil Buxoro.
2. T.Muxamedov. Folklor va uning o'ziga xos xususiyatlari. Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari 2020 yil Buxoro

3. T.Muxamedov. Sharq xalqlari san'ati tarixi, musiqa merosi va maqom ijrochiligi haqida. «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 ///// \\\ Volume:1,ISSUE: 6. 2021/IV Hosted from USA, April 30th 2022
4. T.Muxamedov. Badiiy havaskorlik yo'nalishida "Buxorcha"va "Mavrigi" turkumlarining rivojlanishi. International Conference on Research Identity, Value and Ethics Hosted from USA, April 30th 2022
5. T.Muxamedov. Проблемы международных культурных связей и роль национального искусства в их решении. Miasto Przyszłości Kielce 2023 Impact Factor: 9.9 ISSN-L: 2544-980X